

JAHON BANKI KO'MAGINI KENGAYTIRISH YUZASIDAN KELISHUVGA ERISHILDI

Iqtisodiyot va moliya vazirligida Jahon bankining Taraqqiyot moliyasi bo'yicha vitse-prezidenti Akihiko Nishio bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

**В ТАШКЕНТЕ ПРОШЛО ЗАСЕДАНИЕ
КОНСУЛЬТАТИВНОГО СОВЕТА ПО ТРУДУ,
ЗАНЯТОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ
НАСЕЛЕНИЯ СТРАН СНГ**

Продолжение → 9 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY

#89 (3283) 6.11.2025

BIRJA

GAZETA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO'MAGI BILAN CHOP ETILADI

WWW.BUSINESSDAILY.UZ


O'zbekiston va Qatar yetakchilari strategik sheriklikni yanada kengaytirish masalalarini muhokama qildilar

Doha shahriga amaliy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston – Qatar strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va ko'p qirrali amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qatar Amirini Ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ikkinchi Jahon sammiti tadbirlarining muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

Turli darajalarda samarali muloqot va almashinuvlar olib borilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi yil boshidan buyon 45 foizga oshdi. Qatarning yetakchi



kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Parlamentlararo va madaniy-gumanitar aloqalar rivojlanmoqda.

"Yashil" energetika, transport, geologiya, to'qimachilik, turizm, infratuzilmani rivojlantirish va boshqa yo'nalishlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.



Tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi islohotlarning borishi hamda kelgusi rejalar ko'rib chiqildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-noyabr kuni orfan kasalliklariga chalingan bolalarga tibbiy yordamni yaxshilash, farmatsevtika sohasidagi islohotlarning ijrosi hamda yangi loyihalar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda irsiy va tug'ma kasalliklar bilan tug'ilishning oldini olish, kam uchraydigan (orfan) kasalliklarga chalingan bolalarga o'z vaqtida tashxis qo'yish va davolashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Bugungi kunda 5 turdagi orfan va irsiy-genetik kasalliklarga chalingan jami 2174 nafar bola davlat budjeti mablag'lari hisobidan bepul diagnostika, dori vositalari va maxsus shifobaxsh oziq-ovqat bilan ta'minlanib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ushbu turdagi kasalliklarni diagnostika qilish sifatining yaxshilanishi natijasida orfan kasalliklarining yangi turlari aniqlanmoqda va davola-

nishga muhtoj bolalarning soni ortib bormoqda.

Taqdimotda kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan 2026-2030-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida axborot berildi.

Unga ko'ra, endilikda davolanishi davlat hisobidan qamrab olinadigan kasalliklarning soni 5 tadan 10 taga kengaytiriladi, yosh chegarasi 18 dan 21 ga uzaytiriladi.

Dasturni amalga oshirish uchun 2026-2030-yillarda jami 961 milliard so'm mablag' yo'naltirishi ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, Prezidentimizga farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, "Tashkent Pharma Park" farmatsevtika klasteri sanoat hududida amalga oshirilayotgan loyihalar, sifat va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar taqdimot qilindi.

Tarmoq korxonalarini tomonidan qiymati 5 trillion so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, 172 million dollarlik mahsulotlar eksport qilindi hamda 286 million dollar investitsiya, shundan 257 million dollar xorijiy sarmoyalar o'zlashtirildi.

Davomi → 2-betda

Jarayon

BMT Ayollar tashkiloti va ACWA Power energetika sohasida hamkorlik bitimini imzoladi

→ 3-betda



Международное сотрудничество

Центральная Азия
выстраивает систему
неделимой безопасности

→ 9 стр.



ОТДЕЛ
РЕКЛАМЫ

РЕКЛАМА
VA E'LONLAR
BO'LIMI

+998 (99) 353-55-54



telegram
BIZNES DAILY BIRJA

Boshlanishi → 1-betda

Tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi islohotlarning borishi hamda kelgusi rejalar ko'rib chiqildi

35 ta mahalliy korxonada 205 turdagi dori vositalarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, ular eksport qilinayotgan davlatlarning soni esa 55 taga yetdi. Shu yilning o'zida qiymati 29 million dollarlik 16 ta loyiha ishga tushirildi hamda 830 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Sifat va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida dori vositalarini ishlab chiqaruvchi 61 ta korxonada GMP, 486 ta distribyutorlar omborida GDP hamda 9450 ta dorixonada GPP standarti joriy qilindi.

Taqdimot davomida import qilinayotgan dorilarning referent narxlarini shakllantirishda turli manipulyatsiyalarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va takliflar bo'yicha axborot berildi.

Hozirda 7,6 mingta import dori vositasidan 4,9 mingtasi referent mamlakatlarning narx reyestrda mavjud emas.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarga ko'ra, 2026-yil 1-yanvardan 2,6 ming turdagi retseptli dorilarning narxi o'rtacha 40-50 foizga tushishi kutilmoqda.

Taqdimot davomida farmatsevtika mahsulotlarining davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari haqida ham axborot berildi.



Shifoxonalarda sifatli mahsulotlar xaridi va korrupsion omillarni bartaraf qilish maqsadida endilikda barcha davlat xaridlari "farma.xarid.uz" maxsus elektron tizim orqali amalga oshiriladi.

Mazkur elektron tizim ishga tushirilganidan so'ng davlat xaridlarida faqat ishlab chiqarish, yetkazib berish va mahsulot xavfsizligi bo'yicha barcha zarur sertifikatlar (GMP, ISO:13485 GDP) ega ishtirokchilar qatnasha oladi.

Davlat xaridlari hajmlari hamda tegishli sertifikatlar ega ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar reyestrlari jamoatchilik uchun ochiq bo'ladi.

Davlat xaridlari jarayonida mahsulotlarning narxi belgilan-

gan referent narxlaridan yuqori bo'lmasligi ushbu tizimda avtomatik tarzda tekshiriladi.

Davlatimiz rahbari 2026-yil 1-yanvargacha qadar ushbu tizim doirasida davlat tibbiyot muassasalarida dori vositalari va tibbiy jihozlar ehtiyojlarini shakllantirish hamda qoldiqlarini samarali boshqarish bo'yicha maxsus platformani ishlab chiqish borasida ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimizga, shuningdek, aholini sifatli, xavfsiz va samarador dori vositalari bilan ta'minlash maqsadida dori vositalari va tibbiy jihozlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning yangi tartibi taqdimot qilindi.



Unga ko'ra, dori vositalarini texnologiyalar transferi orqali ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Xorijiy farmatsevtika kompaniyalari tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning quvvatlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish va tezlashtirilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

Yangi turdagi, biotibbiy hujayra mahsulotlar qatoriga kirgan, shikastlangan to'qimalarni davolash, a'zolarining qismlarini o'stirish, organizmning funksional imkoniyatlarini tiklash uchun qo'llaniladigan dori vositalarini tibbiyot amaliyotiga tatbiq qilish imkoniyati yaratiladi.

"Djenerik" dori vositalarining klinik sinovlarini o'tkazish va nati-

jalarini baholash xalqaro standartlarga muvofiq amalga oshiriladi hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish muddatlari qisqartiriladi.

Endilikda xavfsizlik klassifikatsiyasi bo'yicha 1-sinfga mansub tibbiy jihozlar laboratoriya sinovlaridan (steril, o'lchov vositali va invaziv tibbiy jihozlar bundan mustasno) va klinik tadqiqotlardan o'tkazilmaydi.

Prezidentimiz bildirilgan takliflarni ma'qullab, 2025-yil yakuni bo'yicha 166 million dollarlik 32 ta investitsiya loyihasini to'liq ishga tushirib, 1500 ta yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot ishlab chiqarish va eksport hajmini yanada oshirish, retseptli dorilarning narxlarini tushirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berdi.

Jahon banki ko'magini kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi



Iqtisodiyot va moliya vazirligida Jahon bankining Taraqqiyot moliyasi bo'yicha vitse-prezidenti Akihiko Nishio bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Najj Benhassin, Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha dastur koordinatori Anastassiya Aleksandrova ham ishtirok etishdi.

Muloqot davomida o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Xususan, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA) bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiluvchi yuqori samarali loyihalarni amalga oshirish, O'zbekis-

ton iqtisodiyotining izchil rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan istiqbolli tashabbuslarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, muhokamalar chog'ida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni mustahkamlash, barqaror rivojlanishni ta'minlash, xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik jarayonlarini rivojlantirish hamda istiqboldagi ustuvor rejalar yuzasidan fikr almashildi. Muzokaralar yakunida o'zaro aloqalarni rivojlantirish, doimiy va samarali muloqot mexanizmlarini yo'lga qo'yish hamda iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha kelishuvga erishildi

Shuningdek, vazirlikda Jahon banki vitse-prezidenti Akihiko Nishio ishtirokida Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (IDA) faoliyatiga bag'ishlangan davra suhbatlari

ham bo'lib o'tdi. Tadbirida ilmiy va akademik doiralarning yetakchi vakillari qatnashdi. Unda Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasining global rivojlanish tizimidagi o'rni, uning faoliyati, resurslarni taqsimlash mexanizmlari hamda o'zgarib borayotgan xalqaro sharoitda IDA faoliyatini yanada rivojlantirishning ahamiyati haqida yangilangan ma'lumotlar taqdim etildi. Akihiko Nishio IDAning rivojlanayotgan mamlakatlarga iqtisodiy o'sish, barqaror taraqqiyot va farovonlik sari harakatlanishda ko'maklashuvchi global institut sifatidagi roli haqida batafsil ma'lumot berdi. Shuningdek, IDA tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan ustuvor yo'nalishlar, resurslarni taqsimlash mexanizmlari va IDAning boshqa xalqaro moliya institutlaridan farqlovchi jihatlari



yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berildi. Davra suhbatida ishtirokchilar moliyaviy oqimlarning global tendensiyalari, resurslarni samarali taqsimlash, donor va oluvchi mamlakatlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish mexanizmlarini kuchaytirish, IDAning bugungi kunda dolzarb global muammolarni hal etishda tutgan mavqei yuzasidan fikr almashildi. Tadbir yakunida o'zaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, fikr almashinuvi jarayonlarini kuchaytirish hamda O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida IDA va Jahon banki ko'magini kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi.



BMT Ayollar tashkiloti va ACWA Power energetika sohasida hamkorlik bitimini imzoladi

Poytaxtimizda BMT Ayollar tashkiloti va "ACWA Power O'zbekiston" kompaniyasi ayollarni iqtisodiy jihatdan kuchaytirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida energetika sohasida hamkorlik bitimini imzoladi.

Ushbu kelishuv O'zbekistonda BMT agentligi va xususiy kompaniya o'rtasidagi birinchi hamkorlik tashabbusi hisoblanadi. 12 oylik sheriklik doirasida ACWA Power 50 000 AQSH dollari miqdorida mablag' ajratadi. Ushbu mablag' BMT Ayollar tashkilotining ayollar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish dasturi doirasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Tashabbus ta'lim va mehnat bozorida ayollar ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, gender tengligi bo'yicha treninglar, liderlik salohiyatini rivojlantirish dasturlari hamda Shirin kollejida "Gender tengligi" fanining sinov dasturini joriy etishni o'z ichiga oladi. 2025-yil may oyida O'zbekistonda gender tengligi va ayollarni kuchaytirish maqsadlarini qo'llab-quvvatlash

uchun ishga tushirilgan BMT Ayollar tashkiloti texnik ekspertiza va treninglarni taqdim etadi, O'zbekistonda eng yirik qayta tiklanuvchi energiya investori ACWA Power esa tashabbusning moliyalashtirilishi va amalga oshirilishini nazorat qiladi. Ushbu hamkorlik O'zbekistonning 2030-yilgacha gender tengligini ta'minlash strategiyasi hamda Ayollarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish bo'yicha milliy dastur (2022-2026) maqsadlariga mos keladi. Har ikkala hujjat ayollar uchun ta'lim, boshqaruv va iqtisodiyot sohasida teng imkoniyatlar va kengroq vakillikni ta'minlashga qaratilgan.

"ACWA Power O'zbekiston" kompaniyasining mamlakat bo'yicha bosh direktori Jon Zaidining



e'tiroficha, BMT Ayollar tashkiloti bilan hamkorlik kompaniyaga O'zbekistonda ayollar uchun xavfsizroq ish joylari, adolatli imkoniyatlar va kuchliroq vakillikni ta'minlaydigan amaliy tashabbuslarni ilgari surish imkonini beradi. Treninglar, o'quv dasturlari va liderlik salohiyatini rivojlantirishga sarmoya kiritish orqali nafaqat

tashkilotlar va kompaniyalar, balki butun jamiyat uchun foyda keltiradigan amaliyotni mustahkamlash maqsad qilgan.

BMT Ayollar tashkilotining Markaziy Osiyo bo'yicha aloqa ofisi va Qozog'iston mamlakat ofisi rahbari Seren Guven Gyures fikricha, mazkur hamkorlik xususiy sektor

ishtiroki gender tengligi yo'lidagi taraqqiyotni qanday tezlashtirishi mumkinligini yaqqol namoyon etadi. ACWA Power ko'magida ayollar uchun imkoniyatlar kengaytiriladi hamda ta'lim va ish joylarida himoya choralari kuchaytiriladi.

Umuman, imzolangan kelishuv xalqaro tashkilotlar va xususiy sektor o'rtasidagi aloqalarning yangi bosqichini o'zida aks ettirdi. Bunday sheriklik mamlakatimizda kechayotgan islohotlar kun tartibini yanada jadallashtirishga qanday hissa qo'shish mumkinligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ACWA Power O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya sohasida eng yirik investor bo'lib, qiymati 15 milliard AQSH dollaridan ortiq bo'lgan shamol va quyosh energiyasi, energiya saqlash tizimlari hamda yashil vodorod tashabbuslarini o'z ichiga olgan 15 ta loyihani amalga oshirmoqda.

Zamira Tojiyeva.

Davlat xizmatlari innovatsion yondashuv, shaffoflik, raqamlashtirish asosida ko'rsatilmoqda



Kundalik turmush yoki faoliyat yuritish davomida har bir inson davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Shunday ekan bu yo'nalishdagi ishlar qanday yo'lga qo'yilgan?

Adliya vazirligi tomonidan tashkillashtirilgan matbuot anjumanida ayni haqda ma'lumot berilib, so'nggi yangiliklarga to'xtalib o'tildi. Vazirlikning davlat xizmatlari departamenti boshlig'i Eldor Mahkamov ta'kidlaganidek, agar sohada byurokratik to'siqlar bo'lmasa, davlat idoralarning ish jarayonlari raqamlashtirilsa, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulaylik yaratilsa, ularning og'iri yengillashadi, uzog'i yaqinlashadi. Shu bois xalqimizga davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada yaqinlashtirish bo'yicha birinchi navbatda zarur infratuzilma yaratildi. Respublikamizning barcha 208 ta tuman va shaharida davlat xizmatlari markazlari (DXM) tashkil etildi. Tuman (shahar) markazlaridan 50-100 km. uzoq, tog'li hududlarda 138 ta filial faoliyat ko'rsatmoqda. Fuqarolarning murojaatiga ko'ra, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat markazlaridagi 43 ta markazda xizmatlarni "oson", "o'rta" va "murakkab" toifalarga ajratgan holda ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Markazga kelgan pensionerlarga, homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolasi bor fuqarolarga davlat xizmatlaridan navbatsiz foydalanish amaliyoti joriy etilgan. 21 ta proaktiv hamda 70 ta kompozit shaklda ko'rsatiladigan xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

Masalan, aholini eng ko'p qiynab kelayotgan kommunal sohadagi hisoblagichlarni qiyoslashdan o'tkazishning proaktiv shaklda amalga oshirilishi natijasida 115 mingdan ortiq fuqaroning davlat idoralari sarson bo'lib murojaat qilishlariga chek qo'yildi va ularning 2,5 mlrd. so'mdan ortiq mablag'lari tejallishiga erishildi. Bundan tashqari, 30 ga yaqin davlat xizmatidan real vaqt rejimida foydalanish imkoniyati yaratildi. Hozirda yiliga 7,7 mln ta xizmat avtomat ravishda ko'rsatilmoqda.

Aholi va tadbirkorlik subyektlaridan 150 turdagi ma'lumot va hujjatni talab qilish bekor qilindi. Davlat organlari o'rtasida "Raqamli hukumat" tizimi orqali bir yilda o'rtacha 2,2 mln.dan ortiq hujjat (ma'lumot) almashilmoqda. Aholi va tadbirkorlarning 22,7 mlrd. so'mdan ortiq mablag'i hamda 2,2 mln. dona (11 ming kg) qog'oz tejallmoqda. 200 tadan ziyod davlat xizmati bo'yicha ariza berish jarayoni "3 qadam" tamoyili asosida soddalashtirildi. Bunda ariza berishda fuqarodan so'raladigan 2 193 ta ma'lumot va hujjat 1 457 taga (33 foiz) qisqartirildi va ariza to'ldirish vaqti o'rtacha 2-5 daqiqaga, o'rtacha xizmat ko'rsatish vaqti 15-20 daqiqadan 5-8 daqiqaga tushirildi. 200 taga yaqin mahallada 24/7

rejimidagi interaktiv kiosklar o'rnatilib, ular orqali 370 mingdan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

2025-yildan boshlab DXMlarida fuqarolar uchun "Adliya QR" axborot tizimi (dxa-qr.adliya.uz) joriy etildi. Ushbu tizim orqali fuqarolar "Face-ID" orqali ariza ma'lumotlarini tasdiqlash, arizaga tegishli to'lovlarini amalga oshirish, arizaga kiritilgan ma'lumotlar bilan tanishish, xizmat sifatini baholash, ariza natijalarini yuklab olish, zarur ma'lumotlarni DXM xodimi bilan almashish imkoniyatiga ega bo'lishdi. "Adliya QR" axborot tizimi fuqarolar vaqtini tejaydi, navbatlar sezilarli darajada kamayadi, xizmat sifati oshadi, ortiqcha xarajatlar qisqaradi. DXMlar faoliyatini 3 mingdan ortiq kamera orqali masofaviy monitoring qilish, sifatini baholash va samaradorligini tahlil qilish bo'yicha "Situatsion markaz" faoliyati ham yo'lga qo'yildi. 1008 va 1148 ishonch telefon raqamlari, "@antikorbot" telegram boti, elektron pochta va boshqa usullar orqali Adliya vazirligi tizimidagi idora va muassasalarda, jumladan DXMlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlarida hamda noqonuniy xatti-harakatlar haqida xabar berish imkoniyati yaratilgan. Bugungi kunda ESG standartini DXMlarida joriy etish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda.

Nazorat tadbirlari ham muntazam olib borilmoqda. 2025-yilning 9 oyi mobaynida jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida jami 187 999 ta (2024-yilning 9 oyida - 539 593 ta) qonun buzilishi holatlari aniqlandi. Shundan, 120 598 tasi (418 547 ta) muddat buzilishi, 39 748 tasi (69 260 ta) asossiz rad etish, 12 801 tasi (25 060 ta) ortiqcha hujjat talab qilish hamda 14 852 tasi (26 726 ta) boshqa turdagi qonun buzilishini tashkil etadi. Aniqlangan ushbu holatlar yuzasidan vakolatli organlarning 3 831 nafar mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilgan. Shuningdek, 823 ta taqdimnoma va 1 902 ta ogohnoma kiritilib, vakolatli organlarning 545 nafar mas'ul xodimi bilan profilaktik suhbatlar o'tkazilgan. 312 nafar shaxs intizomiy javobgarlikka tortilib, ularning 14 nafari egallab turgan lavozimi-

dan ozod etilgan. Joriy yilning 9 oyida eng ko'p qonun buzilishiga bir qator vazirlik va idoralar tomonidan yo'l qo'yilgan. Mazkur holatlar Kadastr agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarda 23 684 tani, Sog'liqni saqlash vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda 20 362 tani, "Hududgazta'minot" AJ va uning tizimidagi tashkilotlarda 20 110 tani, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda 15 132 tani, "O'zsuvta'minot" AJ va uning tizimidagi tashkilotlarda 11 842 tani tashkil etgan.

Eldor Mahkamovning ma'lum qilishicha, davlat xizmatlarini aholi tomonidan baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlariga oid hamda ipoteka kreditiga davlat subsidiyasini ajratish davlat xizmatini ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish va inson omilini yo'qotishga qaratilgan qarorlar loyihalari ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2025-yil 8-sentyabrdagi 157-sonli farmoni bilan sohada muhim bosqichga qadam qo'yildi. Ushbu hujjatga asosan 2025-yil 1-noyabrdan boshlab Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 30 turdagi ma'lumot fuqaroning shaxsiy kabinetiga real vaqt rejimida bepul joylashtirilishi boshlandi. 2028-yilga qadar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Davlat xizmatlari markazlari orqali taqdim etiladigan xizmatlar soni 900 taga yetkaziladi. 2026-yil avgustgacha 20 ta yangi davlat xizmati joriy etiladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab 30 turdagi ma'lumot va hujjatni aholidan talab qilish bekor qilinadi hamda ular "Raqamli hukumat" tizimi orqali tegishli idoralardan mustaqil ravishda olinadi. 2026-yil yanvardan ishonchnoma berish va vakillikni tasdiqlash bo'yicha "Vakolat.uz" platformasi ishga tushiriladi. 2026-yil 1-iyundan boshlab axborot va maslahat xizmatlarini sun'iy intellekt vositasida ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Matbuot anjumani yakunida jurnalistlarni qiziqtirgan bir qator savollarga javob berilib, amaliy ishlar Chilonzor tumani Davlat xizmatlari markazi faoliyati misolida namoyish etildi.

Kobul Tursunov, Senatning Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari.

Yoqilg'i-energetika resurslari bilan bog'liq huquqbuzarlik uchun jarima miqdori oshirilmoqda

Keyingi yillarda mamlakatimizda energiyani tejash, undan oqilona foydalanish sohasidagi ishlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilmoqda.

Shuningdek, bu yo'nalishda ta'sirchan davlat nazoratini ta'minlash, yoqilg'i-energetika resurslari bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishga ham e'tibor qaratilmoqda.

Ammo o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga tijorat maqsadlarida o'zboshimchalik bilan ulanish orqali oz miqdorda talon-taroj qilganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, huquqbuzarliklar soni kamaymayapti. Jumladan, 2023-yilda 623 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka, 2024-yilda 1 677 nafar shaxs javobgarlikka tortilgan va huquqbuzarliklar soni bir yil ichida qariyb 3 barobarga oshgan. Elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash, energiya bilan ta'minlovchi tashkilotlarning ruxsatisiz xizmat binolari va boshqa binolarni isitish uchun, ishlab chiqarish jarayonida nazarda tutilmagan boshqa maqsadlar uchun elektr energiyasidan foydalanish holatlari ham ko'paymoqda. Jumladan, 2023-yilda shunday holatlar yuzasidan 231 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan va ulardan birortasi takroran ushbu huquqbuzarlikni sodir etmagan bo'lsa, 2024-yilda jami 2 811 nafar, shundan 12 nafari takroriy javobgarlikka tortilgan. Mazkur turdagi huquqbuzarliklar soni bir yil ichida qariyb 12 barobarga ortgan. Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanish yoki ulardan foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish holatlari bo'yicha 2023-yilda 36 063 nafar shaxs (shundan 410 nafari yuridik), 2024-yilda 35 283 nafar shaxs (shundan 642 nafari yuridik) javobgarlikka tortilgan. Bu boradagi jazoni qo'llash amaliyoti tahlil qilinganda, tegishli huquqbuzarlik uchun belgilangan jarimalar miqdori kutilgan natijalarni bermayotganligini ko'rish mumkin.

Senatning o'n birinchi yalpi majlisida ma'qullangan "Yoqilg'i-energetika sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi



kurashish choralari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun yuqoridagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir. Unda bunday turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida ma'muriy jarimalar miqdori oshirilmoqda.

Chunonchi, energiya resurslariga bo'lgan talab kundan-kunga oshib borayotganligi, aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining energiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish dolzarb vazifaga aylanganligi sababli Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksdagi oz miqdordagi talon-tarojlik uchun javobgarlik bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdordagi ma'muriy jarimalar bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan yigirma besh baravarigacha etib o'zgartirilmoqda.

Shuningdek, elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash bo'yicha javobgarlik mansabdor shaxs bilan bir qatorda yakka tartibdagi tadbirkor uchun ham belgilanmoqda va amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n besh baravarigacha bo'lgan ma'muriy jarima bazaviy hisoblash miqdorigacha oshirilmoqda. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, ma'muriy jarima amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha bo'lgan miqdor bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz besh baravarigacha etib belgilanmoqda.

Jinoyat kodeksiga ham o'zgartirish kiritilib, bu kabi huquqbuzarliklar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yetmish besh baravarigacha bo'lgan jarima bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yetmish besh baravarigacha tarzda ko'tarilmoqda.

Soha mutaxassislarining tahlillariga ko'ra, O'zenerginpeksiya xodimlarining soni yetarli bo'lmaganligi sababli ko'plab huquqbuzarliklarni joyida aniqlashning imkoni bo'lmagan va natijada huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari ko'rilmagan. Shu bois qonun bilan elektr energiyasidan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 100-moddasining yoritish uchun elektr energiyasidan xo'jasizlarcha foydalanishga oid qismi yuzasidan ma'muriy bayonnoma tuzish vakolati Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiya bilan bir qatorda Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Ichki ishlar vazirligi profilaktika inspektorlariga ham berilmoqda.

Umuman, ma'qullangan qonun yoqilg'i-energetika resurslari bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, iqtisod qilingan ushbu resurslarni sanoatning boshqa tarmoqlariga yo'naltirish, qolaversa ularning eksportini oshirish va import ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobi va audit: amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar



Iqtisodiyot va moliya vazirligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) yo'nalishida 2025-yil uchinchi choragida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida talabgorlarning imtihon topshirish xarajatlarini qoplash bo'yicha 817 ta ariza ko'rib chiqilib, ulardan 425 nafari uchun 602,3 mln so'm qoplab berildi. Jami 218 nafar tinglovchini o'qitish xarajatlarini qoplash bo'yicha 5 ta o'quv markazidan kelib tushgan 15 ta ariza ko'rib chiqildi, shundan, jami 7 ta arizadagi 141 nafar tinglovchini o'qitish xarajatlari uchun 626,4 mln so'm qoplab berildi.

ACCA (Association of Chartered Certified Accountants) bilan o'zaro hamkorlik jarayonida 19 ta o'quv markazi xalqaro akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tdi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o'qitish bo'yicha ikki bosqichli bepul masofaviy onlayn ta'lim platformasida 13 000 dan ortiq tinglovchi, talaba, o'qituvchi, buxgalter va moliyachi ushbu platformalarda ta'lim olmoqda. O'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash

doirasida imtihon topshirish xarajatlarini qoplash bo'yicha va davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi sohasiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha "MHXS" dasturiy majmuasi tayyorlanib, joriy yil 1-yanvardan ishga tushirildi.

Respublikamizda auditorlik xizmatlari bozorining umumiy tavsifiga ko'ra, 2025-yil 30-sentyabr holati bo'yicha auditorlik tashkilotlarining soni 167 taga, auditor malaka sertifikatiga ega bo'lganlar soni 1264 nafargacha yetdi. Auditorlik tashkilotlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash va ularni davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha "Audit" dasturiy majmuasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Hozirgi vaqtda ushbu dasturiy majmua <http://audit.mf.uz> va <https://audit.imv.uz> veb-sahifalarida ishlab kelmoqda.

Bundan tashqari hisobot davrida Iqtisodiyot va moliya vazirligining Audit xalqaro standartlarining (AXS) davlat tilidagi matnini ko'rib chiqish komissiyasi ish reglamenti tasdiqlanib, uning tarkibiga sohaning yetakchi mutaxassislari kiritildi. Shuningdek, Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan InstitutSIONAL salohiyatni oshirish loyihasi

doirasida AXSni tarjima qilish bo'yicha tadbirlar o'tkazilmoqda.

2025-yil 15-sentyabrda Prezidentimizning "Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qaror bilan buxgalteriya hisobi sohasini tizimlashtirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni rag'batlantirish va tadbirkorlik subyektlarining MHXSga o'tishi uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, moliyaviy hisobotning tashqi sifat nazorati tizimlarini takomillashtirish, buxgalterlik va auditorlik xizmatlari sifatini xalqaro standartlar asosida ta'minlash, buxgal-

teriya hisobi va audit sohasini raqamlashtirish orqali rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etishga doir ishlarni davom ettirish bilan birga MHXSni joriy etish jarayonini muvofiqlashtirish va metodologik ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va yengillik yaratishga e'tibor qaratilmoqda. Vazirlikning idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari hisoblangan Buxgalteriya hisobining 4-sonli ("Tovar-moddiy xazinalar"), 5-sonli ("Asosiy vositalar") va 7-sonli ("Nomoddiy aktivlar") milliy standartlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.



Bank xizmatlari: iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha yangi minimal talablar

Markaziy bank boshqaruvining "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qarori Adliya vazirligida 2025-yil 28-oktyabrda 3030-11-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Mazkur nizomda bir qator asosiy talablar aks ettirilmoqda.

Birinchidan, banklar tomonidan qarz oluvchi jismoniy shaxslarga kredit majburiyatlari bilan bog'liq ehtimoliy tavakkalchiliklar to'g'risidagi ma'lumot berilishini nazarda tutuvchi standart cheklist shakli amaliyotga joriy etilmoqda. Mazkur cheklist qarz oluvchilarga kredit bilan bog'liq majburiyatlar va ehtimoliy tavakkalchiliklar to'g'risida oldindan ma'lumot (tushuntirish) bergan holda, ularni kredit olish bo'yicha mas'uliyatli qaror qabul qilishga undaydi.

Ikkinchidan, moliyaviy qiyinchiliklar sababli kredit to'lovlarini o'z vaqtida to'lashga qiyalayotgan qarz oluvchilarning amaldagi kreditlari shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha bankning ichki tartibi bo'lishi va uni iste'molchilarga oshkor qilishi darkor. Ushbu talab banklarning qiyin vaziyatlarda mijozlarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, kredit shartnomasini restrukturizatsiya qilish jarayonlari shaffofligini ta'minlash va banklarda bu borada aniq qoidalarni shakllantirishga xizmat qiladi.



Uchinchidan, ayrim insofsiz amaliyotlarni cheklash, xususan iste'molchilarga kredit olish bo'yicha arizasida (so'rovda) ko'rsatilgan miqdordan ortiqcha summada kredit taklif etgan holda uni olishga undamaslik, kredit qarzdorliklarini davlat tomonidan fuqarolarga ajratiladigan ijtimoiy nafaqa va yordam mablag'lariga qaratmaslik hamda kredit shartnomasida yoki unga ilova qilingan kreditni qaytarish jadvalida to'lovlar bo'yicha belgilangan kalendar sanaga qadar kredit to'lovlarini undirishga talab qo'ymaslik belgilanmoqda. Mazkur normalar aholining ortiqcha qarz majburiyatlariga ega bo'lishining oldini olish, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash

va davlat tomonidan ajratiladigan maqsadli yordam mablag'lari daxlsizligini ta'minlash hamda kreditni qaytarish jadvalida belgilangan kalendar sanalarga muvofiq kredit to'lovlari undirilishini tartibga solish bo'yicha banklar mas'uliyatini oshiradi.

To'rtinchidan, moliyaviy xizmatlar ko'rsatilayotganda iste'molchining xohish-irodasini ifodalovchi har qanday belgilarni oldindan o'rnatib qo'yish, tanlab qo'yish hamda kredit parametrlari ko'rsatilgan maydonchalarni oldindan to'ldirish cheklanmoqda. Bu esa o'z navbatida, iste'molchilarning bank xizmatlaridan foydalanish jarayonlarida qaror qabul qilish erkinligini ta'minlaydi, bank mahsulotlari shartlarining shaffofligi mustahkamlanadi hamda bank va mijoz o'rtasida kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarining oldini oladi.

Beshinchidan, tijorat banklari tomonidan iste'molchilarga omonatlarni kafolatlash tizimi, kafolatlanadigan omonat turlari va miqdori, kompensatsiya berish tartibi va uni to'lash muddatlari to'g'risida batafsil tushuntirish hamda standart shakldagi axborot berish talabi o'rnatilmoqda. Mazkur talab aholining omonat xavfsizligi yuzasidan xabardorligini oshirish, moliyaviy savodxonligini yaxshilash hamda ularning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nizomga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar 2026-yil 29-yanvardan kuchga kiradi.

Abdurashid Bozorov, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi mutaxassisi.

Transport yo'nalishidagi istiqbollari tahlili

Dengizga chiqish yo'li bo'lmagan davlat sifatida mamlakatimizda transchegaraviy infratuzilma loyihalari bilan bir qatorda, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) doirasida tranzit-transport bog'liqligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Chunki bu masala tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish, tranzit marshrutlarini kengaytirish va eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning IHT doirasidagi transport sohasida hamkorlikka nisbatan yondashuvda deklaratsiyalardan raqamli va infratuzilma yechimlarigacha, yopiq milliy manfaatlardan mintaqaviy bog'lanishgacha, qisqa-qisqa yo'nalishlardan O'zbekiston markaziy bog'lovchi rol o'ynaydigan yagona logistika tizimigacha bo'lgan aniq strategik yo'nalishni ko'rish mumkin. O'tgan yillar davomida IHT doirasidagi transport hamkorligi rivojining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinganda, yuzaga kelayotgan o'zaro aloqalarning keyingi tendensiyalarini tavsiflovchi bir qator xulosalar va umumlashmaga kelish mumkin.

Birinchidan, IHT doirasida transport sohasidagi hamkorlik Yevroosiyo makonida tranzit yo'nalishlari o'rtasidagi raqobat kuchayishi sharoitida rivojlanmoqda. Rasmiy hujjatlar va institutsional platformalarning xilma-xilligiga qaramay, transport integratsiyasining real samaradorligi cheklanganligicha qolmoqda. IHTning transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish dasturi (TTCDP), garchi 2025-yilgacha mo'ljallangan strategik hujjat sifatida e'lon qilingan bo'lsa-da, ko'p jihatdan cheklangan bo'lib qolmoqda va barcha ishtirokchi mamlakatlar tomonidan yetarli darajada moliyalash va siyosiy sodiqlik bilan ta'minlanmagan. Bu belgilangan maqsadlar va haqiqiy natijalar o'rtasida sezilarli tafovut yaratadi.

Ikkinchidan, Transport vazirlari kengashi orqali mavjud muvofiqlashtirish mexanizmi va 2003-yildagi tartib-taomillarni uyg'unlashtirish to'g'risidagi memorandum, ayniqsa, transchegaraviy rasmiylashtirish, hujjatlarni raqamlashtirish va tan olish masalalarida tartibga soluvchi standartlarni unifikatsiya qilishga olib kelmadi. Amalda mamlakatlar o'rtasida bo'xona rejimlari, texnik talablar va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish darajasida sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda. Bu xususiy sektor va xalqaro yuk jo'natuvchilar uchun "Sharq-G'arb" yo'laginging jozibadorligini (ayniqsa, TRACECA yoki "Belbog' va yo'l" kabi institutsional jihatdan ilg'or tashabbuslar bilan solishtirganda) kamaytiradi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, aynan IHT formati Markaziy Osiyoning ichki bozorlarini ham, dengizga chiqish tashqi yo'llarini ham qamrab oluvchi inklyuziv mintaqaviy logistikani qurish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. "Sharq-G'arb" yo'laginging rivojlanishi agar ishtirokchi davlatlarning sa'y-harakatlari tizimli ravishda birlashtirilsa va tartibga soluvchi to'siqlar bar-taraf etilsa, mintaqaning butun iqtisodiy geografiyasi uchun tarkibiy karkas rolini o'ynashi mumkin.

Uchinchidan, O'zbekiston uchun IHT doirasidagi transport hamkorligi nafaqat logistika masalasi, balki tashqi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy suverenitetni mustahkamlashning asosiy elementi hisoblanadi. So'nggi yillarda

amalga oshirilayotgan "ko'p vektorli tranzit" strategiyasi shimoliy yo'nalishlarga qaramlikni bartaraf etish va dengiz portlariga eng qisqa yo'llarni topishga qaratilgan. "Termiz - Qobul - Peshovar" transafg'on yo'laginging rivojlantirish tashabbusi mamlakatning nafaqat mavjud yo'nalishlarga ulanish, balki Pokiston portlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqishni ta'minlovchi o'z transport aloqalari arxitekturasini shakllantirishga intilishini aks ettiradi. Xuddi shunday, Turkmaniston va Eron orqali "Markaz-Janub" yo'laginging shakllantirishda ishtirok etish O'zbekistonga Yaqin Sharq va Hind okeani logistikasiga integratsiyalashish imkonini beradi.

To'rtinchidan, O'zbekiston jismoniy infratuzilma bilan cheklanib qolmay, raqamli logistika bog'liqligi masalalarini faol ilgari surmoqda. e-TIR, e-CMR tizimlari, "yagona darcha" milliy komponentlarining joriy qilinishi va IHT mintaqaviy platformalariga ulanish tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga strategik e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi, bu ayniqsa dengizga chiqish yo'li bo'lmagan mamlakat uchun dolzarbdur. Biroq, ushbu yechimlarning samaradorligi bevosita sheriklar bilan moslashishga bog'liq. Bunday muvofiqlashtirishsiz raqamlashtirish mintaqaviy emas, balki mahalliy yutuq bo'lib qoladi.

Beshinchidan, uzoq yillik hamkorlik formati mavjudligiga qaramay, IHT transport kun tartibi bir qator tizimli cheklolarga duch kelmoqda. Tashkilotning institutsional zaifligi, ijro etish vakolatiga ega bo'lgan millatlararo muvofiqlashtiruvchi markazning yo'qligi xatarlarga tezkorlik bilan javob berish va islohotlarni ilgari surishga

imkon bermaydi. A'zo davlatlar ko'pincha bir-biridan farq qiladigan milliy manfaatlarni ko'zlaydi, bu esa konsensusni, ayniqsa, Afg'oniston orqali o'tadigan koridorlar kabi nozik loyihalar kontekstida qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, infratuzilmaviy xilma-xillik kuzatilmoqda. Mamlakatlar o'rtasida temir yo'l tizimlarining holati, vokzallar, terminallar va omborlarni modernizatsiya qilish darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Masalan, O'zbekiston va unga qo'shni mamlakatlar hududida yetarli miqdordagi multimodal xabar va logistika markazlarining yo'qligi Sharq-G'arb koridori bo'ylab yuk tashish tezligi va iqtisodiy samaradorligini cheklaydi. Shu bilan birga, Afg'onistonda loyihalarni amalga oshirish yuqori noaniqlik bilan bog'liqligiga qolmoqda. Xitoy (BRI), YEI (TRACECA) va Rossiya tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar o'rtasidagi geosiyosiy raqobat sa'y-harakatlarning bo'linishiga olib keladi, bunda IHTni xalqaro logistika siyosati periferiyasiga surilish xavfi kutmoqda.

Shu bois hozirgi sharoitda IHTga nafaqat transport formati, balki ishonch, bog'liqlik va barqaror tranzit arxitekturasini shakllantirishga qaratilgan faol mintaqaviy siyosatni ilgari surish platformasi sifatida qarash kerak. IHT doirasida transport sohasiga oid hamkorlik O'zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy ahamiyatga ega bo'lib, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropa bilan aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois O'zbekiston xalqaro logistikadagi o'z rolini kuchaytirish uchun Markaziy Yevroosiyaning mintaqaviy transport xabi sifatidagi maqomini mustahkamlagan holda o'z kun tartibini shakllantirishi

lozim. Bunga bo'lib o'tgan sammitda O'zbekiston Prezidenti tomonidan taklif etilgan chora-tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi yordam beradi.

Prezidentimiz sammitda transport va logistika haqida so'z yuritar ekan, xalqaro logistika zanjirlarining uzilish xavfi naqadar yuqoriligini va bu borada Transafg'on yo'laginging shakllantirish strategik ahamiyatga ega ekanini qayd etdi. Shuningdek, transport-logistika sohasini raqamlashtirish bo'yicha tizimli ishlarni yo'lga qo'yish maqsadida Raqamli transport va bojxona idorasini tashkil etishni jadallashtirish taklif etildi. Transport strategiyalari, reglamentlar va raqamli platformalarni bir-biriga moslash bo'yicha majburiy tavsiflarni ilgari surish huquqiga ega bo'lgan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi bunday muvofiqlashtiruvchi organning tashkil etilishi siyosatning oldindan ko'ra bilinishi va muvofiqligini oshiradi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlaridan investitsiyalarni jalb qilish maqsadida bahsli o'rinarlar va raqamli bog'liqlikni, o'tkazish qobiliyatini baholashni o'z ichiga olgan IHT davlatlarining "logistik muvofiqligi" yagona xaritasini ishlab chiqishni yanada rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, mintaqaviy transport xabi maqomini mustahkamlash uchun O'zbekistonning o'zi raqamli yechimlar, avtomatlashtirilgan tekshirish va qog'ozsiz rasmiylashtirishga asoslangan yangi avlod chegara o'tish punktlarini rivojlantirishga e'tibor qaratgan holda "yashil tranzit" mexanizmlarini institutsionallashtirish bo'yicha ishlarni kuchaytirishi kerak. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonga nafaqat ishonchli tranzit mamlakat sifatida o'z mavqegini mustahkamlash, balki Yevroosiyo markazida innovatsion va barqaror logistika tarmog'i imijini shakllantirish imkonini beradi.

В Ташкенте прошло заседание Консультативного Совета по труду, занятости и социальной защите населения стран СНГ

В заседании Совета приняли участие представители Азербайджана, Армении, Беларуси, Казахстана, Кыргызстана, России, Таджикистана, Туркменистана, Узбекистана, МПА СНГ, Межгосударственного статистического комитета, Всеобщей конфедерации профсоюзов, Белорусского национального технического университета и Исполнительного комитета Содружества.

На повестке дня заседания был широкий спектр вопросов, в их числе приоритетные направления дальнейшего развития социально-трудового сотрудничества на пространстве СНГ, вопросы цифровой трансформации в сфере труда и занятости, новации обработки и визуализации данных статистики труда, проект Комплексной программы, направленной на создание общего рынка труда и регулирование миграции рабочей силы стран Содружества.

Особое внимание было уделено рассмотрению вопросов, связанных с принятыми мерами социальной защиты участников Великой Отечественной войны и лиц, приравненных к ним, в год 80-летия Победы, а также с реализацией в странах СНГ направлений активного долголетия и внедрением новых форм социальной работы в интересах граждан старшего поколения, поддержкой лиц с инвалидностью.

Участники встречи также посетили Управление содействия занятости и сокращения бедности и Центр профессиональных навыков города Ташкента, где ознакомились с практическим опытом содействия в обеспечении занятости населения.

В Центре обратившимся прежде всего оказывают консультации по вопросам занятости. При необходимости граждане направляются на обучение иностранным языкам и цифровым технологиям. Если гражданин не трудоустроен, предлагают разные вакансии как в



стране, так и за рубежом. Нуждающиеся в социальной помощи могут быть обеспечены занятостью на постоянной основе. Выбравшие работу, требующую профессиональных навыков, проходят краткосрочные курсы по обучению профессии. Обычно продолжительность таких курсов – от одного до четырех месяцев. Сроки обучения и объем часов каждого курса разработаны соответствующими специалистами и работодателями с учетом стандартов WorldSkills, требований и потребностей внутреннего рынка. На курсах обучения теоретические занятия составляют 30 процентов учебной нагрузки, практические – 70.



В рамках курсов можно получить профессии: электрика, сварщика, водителя большегрузного автомобиля, машиниста крана, мастера по ремонту бытовой техники, бухгалтера, сурдопереводчика, повара, кондитера, парикмахера, косметолога и многие другие.

Работа центров профессиональных навыков нацелена на социальную поддержку и защиту населения, а также на развитие предпринимательства и привлечение к бизнесу, оказание гражданам психологической и юридической помощи.



По материалам Kabar.kg

Центральная Азия выстраивает систему неделимой безопасности



Центральная Азия формируется как пространство доверия и развития. В плане экономики давно сложилось понимание того, что быть вместе, развивать взаимовыгодные производственные цепочки, создать объединенное энергетическое кольцо, выстроить общий транспортный каркас и логистику намного выгоднее, чем друг с другом конкурировать.

В общем-то, около 30 лет после развала СССР наши страны были соперниками, мы конфликтовали из-за спорных участков земли, были серьезные разногласия по вопросам использования воды. Если возникали какие-то трения на высшем уровне, доходило до перекрытия границ, ограничения поставок энергоносителей. Экономическая блокада использовалась как один из инструментов оказания политического давления. Наверняка многие помнят, как это было.

Наши страны конфликтовали, и тем самым только ослабляли друг друга, не могли реализовать инфраструктурные проекты регионального значения.

В этом отношении Кыргызстан смог сделать большой шаг вперед урегулировав все территориальные разногласия с ближайшими соседями – Узбекистаном и Таджикистаном. Тем самым была не просто снята напряженность, появились стимулы и возможности для экономического взаимодействия. Люди перестали смотреть друг на друга через колючую проволоку у закрытых КПП, теперь они могут торговать, работать на сопредельных территориях, делать вместе бизнес. Доверие, восстановленное между руководителями стран через сложный переговорный процесс, взаимные уступки и уважение к национальным интересам друг друга, сформировали позитивный импульс, и он был правильно воспринят и нашел отклик у населения наших



стран. Мы вспомнили, что такое добрососедство и дружба.

«Возможно, скоро пограничники будут не нужны на наших границах», - с таким вопросом Председатель Государственного комитета национальной безопасности Кыргызстана Камчыбек Ташиев обратился к представителям пограничных войск Узбекистана и Таджикистана в ходе заседания Совета командующих погранвойсками стран СНГ прошедшем в городе Манас. Далее он пояснил свою мысль: «Народ сам будет взаимодействовать. Президенты создали нам такие условия, при

которых надо жить только в дружбе. Другого выхода у нас нет».

На самом деле каких-то нерешённых вопросов или разногласий между лидерами стран Центральной Азии не существует. Они работают в плотном контакте и поддерживают постоянный диалог по вопросам как региональной, так и глобальной политики.

Основные принципы взаимодействия, которые закладываются в отношении нового типа, это уважение, доверие и настрой на реализацию многоуровневого и полноформатного сотрудничества с учетом национальных интересов. Только таким путем можно было прийти, например, к заключению трёхстороннего соглашения о строительстве ГЭС «Камбар-Ата - 1».

Этот проект регионального значения Кыргызстан будет реализовывать вместе с Казахстаном и Узбекистаном. То же самое касается трансконтинентальной железной дороги, ко-

торая пройдет по территории нашей страны и свяжет между собой по кратчайшему расстоянию крупные транспортные системы Юго-восточной Азии и Европы.

Это правильные политические настройки, которые позволили наполнить сотрудничество в Центральной Азии конкретным содержанием и пользой. Мы вместе развиваем промышленный сектор, развиваем удобную логистику, формируем образ будущего. Вопросы обеспечения безопасности в этом контексте, приобретают несколько иной смысл и значимость.

После создания общего пространства взаимодействия внутренние границы в регионе Центральной Азии станут абсолютно безопасными. Держать там войска и технику не будет никакого смысла. Зато этими подразделениями можно будет укрепить проблемные участки на внешнем периметре. Для борьбы с наркотрафиком, незаконной миграцией и контрабандой оружия.

То есть делаются шаги, чтобы стабильность в Центральной Азии поддерживалась на принципах неделимой безопасности в сотрудничестве с партнёрами по ШОС, ОДКБ и СНГ. В нынешних условиях, когда между странами отсутствуют противоречия, есть настрой работать вместе и выстраивать новое будущее. Такая система коллективной ответственности и поддержки является оптимальной для обеспечения стабильности и поддержания мира.





Tashkilotlar xodimlarida mol-mulk va yer solig'i bo'yicha 831,5 mlrd so'mdan ortiq qarzdorlik mavjud

2025-yil 15-oktyabr holatiga 173 391 ta tashkilotning 747 940 xodimida 882 939 soliq obyekt bo'yicha 831,5 mlrd so'm (yer solig'i - 501,2 mlrd so'm, mol-mulk solig'i - 330,3 mlrd so'm) to'lanmagan soliq qarzdorligi mavjud.

Shundan:

- 150,8 mlrd so'm – budjet tashkilotlari xodimlari;
- 35,8 mlrd so'm – nodavlat-notijorat tashkilotlari xodimlari;
- 644,9 mlrd so'm – tijorat tashkilotlari xodimlari hisobiga to'g'ri keladi.

Xodimlari eng ko'p soliq to'lashi lozim bo'lgan tashkilotlar – TOP-3:

- "Temiryo'llarinfrazuzilma" AJ - 4 mlrd so'm;
- "Olmaliq Kon-metallurgiya kombinati" AJ - 3,3 mlrd so'm;
- "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ - 3,3 mlrd so'm.

Tijorat tashkilotlari xodimlarining mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha qarzdorligi (sohalar kesimida):

- sanoat sohasidagi 20,8 mingta tashkilotda ishlovchi 130,1 ming nafar xodimning soliq qarzi – 140,7 mlrd so'm;
- qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasidagi 50,9 mingta tashkilotda ishlovchi 88,8 ming nafar xodimning soliq qarzi – 138,6 mlrd so'm;
- savdo sohasidagi 41,3 mingta tashkilotda ishlovchi 71,6 ming nafar xodimning soliq qarzi – 116 mlrd so'm;
- qurilish sohasidagi 10,1 mingta tashkilotda ishlovchi 58,6 ming nafar xodimning soliq qarzi – 90,3 mlrd so'm;

- tashish va saqlash sohasidagi 5,4 mingta tashkilotda ishlovchi 33,2 ming nafar xodimning soliq qarzi – 30,6 mlrd so'm;
- yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi 9,2 mingta tashkilotda ishlovchi 16,5 ming nafar xodimning soliq qarzi – 28,5 mlrd so'm;
- sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi 4,3 mingta tashkilotda ishlovchi 10,4 ming nafar xodimning soliq qarzi – 11,7 mlrd so'm;
- axborot va aloqa sohasidagi 2,2 mingta tashkilotda ishlovchi 9,6 ming nafar xodimning soliq qarzi – 8,7 mlrd so'm;
- boshqa faoliyat turlari sohasidagi 16,8 mingta tashkilotda ishlovchi 65,4 ming nafar xodimning soliq qarzi – 79,8 mlrd so'm.

Korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlar tomonidan 2025-yilda to'lanmasdan qolayotgan mol-mulk va yer soliqlaridan qarzdorliklar

(2025-yil 15-oktyabr holatiga, mlrd so'mda)

Tashkilotlar soni
173 391

Xodimlar soni
747 940

Obyektlar soni
882 939

2025-yilda 15-oktyabr holatiga qarzdorlik summasi

831,5



yer solig'i 501,2
mol-mulk solig'i 330,3

MOL-MULK VA YER SOLIQLARINI "SOLIQ" MOBIL ILOVASI ORQALI QULAY VA OSON TO'LASH IMKONIYATI YARATILGAN

TIJORAT TASHKILOTLARI

Tashkilot soni

Xodimlar soni

Soliq qarzi

SANOAT



20 829 / 130 074

140,7

QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI



50 910 / 88 760

138,6

SAVDO



41 291 / 71 559

116,0

QURILISH



10 108 / 58 571

90,3

TASHISH VA SAQLASH



5 440 / 33 164

30,6

YASHASH VA OVQATLANISH BO'YICHA XIZMATLAR



9 182 / 16 495

28,5

SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY XIZMATLAR KO'RSATISH



4 304 / 10 428

11,7

AXBOROT VA ALOQA



2 193 / 9 600

8,7

BOSHQALAR



16 809 / 65 391

79,8

XODIMLARI ENG KO'P SOLIQ TO'LASHI LOZIM TOP-3 TASHKILOT

"TEMIRYO'LLARINFRAUZILMA" AJ



7 322 / 4,0

HUUDUY ELEKTR TARMOQLARI AJ



4 687 / 3,3

OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI AJ



5 078 / 3,3

Таъсисчи

Давлат активларини бошқариш агентлиги

"Бизнес-Daily Медиа"
ноширлик уйи МЧЖ

Бош директор в.в.б. Бош муҳаррир

У. ПУЛАТОВ

Мурожаат учун

Тел.: +998 (99) 353-55-54

Е-mail: biznesdm 2020@gmail.com

Манзил: 100000, Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 6-уй.

Газета 1994 йил 31 августдан чиқа бошлаган.

2013 йил 12 апрелда Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 0064-сон билан қайта рўйхатдан ўтган.

2025 йилдан бошлаб газета PDF электрон шаклда чиқади. Нашр даврийлиги: ҳафтада икки марта – ҳар сешанба ва пайшанба кунлари. Формат А3 (816x406)

© Biznes Daily "Биржа"дан кўчириб босиш фақат

"Бизнес-Daily Медиа" НУ МЧЖ рухсати билан амалга оширилади.

Газета жамият матбаа бўлимида терилди ва саҳифаланди.

© Biznes Daily "Биржа" оригинал макети.

© Газета текин тарқатилади



telegram
BIZNES DAILY BIRJA